

E.SHUKURNING LAFZIY SAN'ATLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Sadoqat Ergashova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich tayanch
doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14233967>

Annotatsiya. Mazkur maqolada iste'dodli shoir Eshqobil Shukur ijodida qo'llangan lafziy san'atlar hamda ijodkorning badiiy san'atlarni qo'llash mahorati haqida so'z boradi. Maqola mavzusi ilmiy-nazariy fikrlar bilan asoslangan holda misollar vositasida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: lafziy san'atlar, ijodkor mahorati, ma'naviy san'atlar, epifora, anafora.

E. SHUKUR'S MASTERY OF USING VERBAL ARTS

Abstract. This article discusses the verbal arts used in the work of the talented poet Eshqobil Shukur and the artist's mastery of using artistic arts. The topic of the article is explained using examples, based on scientific and theoretical ideas.

Keywords: verbal arts, creative skill, spiritual arts, epiphora, anaphora.

УМЕНИЕ Э. ШУКУРА ПОЛЬЗОВАТЬСЯ СЛОВЕСНЫМИ ИСКУССТВАМИ

Аннотация. В данной статье рассказывается о словесных искусствах, использованных в творчестве талантливого поэта Эшкобиля Шукура, и мастерстве художника в использовании художественных искусств. Тема статьи поясняется с помощью примеров, основанных на научных и теоретических представлениях.

Ключевые слова: словесное искусство, творчество, духовное искусство, эпифора, анафора.

She'ring o'ziga xosligini, ta'sirchanligini, emotsional ta'sirini namoyish qiluvchi vositalardan biri badiiy san'atdir. "Haqiqiy san'at asari unda faqat aktual, umuminsoniy fikr va g'oyalar tasvir va targ'ib qilinganligi bilangina emas, balki shu fikr-g'oyaning yuksak badiiyat orqali ifodalanganligi bilan ham e'tiborli va boqiydir. Bunday badiiylikni ta'minlashda esa, shubhasiz, badiiy san'atlarning roli katta"¹.

Adabiyotshunoslik tarixidan ma'lumki, Atoulloh Husayniy "Badoye'u-s-sanoye" ("San'at yangiliklari") asarida 220 dan ortiq san'at turlarini farqlash bilan birga ularni lafziy san'atlar, ma'naviy san'atlar hamda lafzi-yu ma'naviy san'atlar kabi uch yo'nalishda taqsim qiladi².

Adabiyotshunos To'xta Boboyev ta'rificha, lafziy san'atlar she'riy nutqdagi so'zning

¹ Афокова. Н. Абдулла Орипов лирикасида бадий санъатлар: Филол. фан. ном.... дисс. – Тошкент, 1997. – Б. 14

² Хусайни Атоуллох. Бадойиъус-санойиъ. Т., 1981, 35-бет.

tovushi bilan bog'liq bo'lib, ko'proq shakl hodisasi sifatida ko'rinadi³. Demak, badiiy san'atning mazkur turida shakl ustuvorlik qiladi.

Ushbu turga *nido*, *tasdir*, *tasbe*, *tardi aks*, *ta'did*, *tarsi*, *takrir*, *mukarrar*, *alliteratsiya*, *anafora*, *epifora* kabi shaklga asoslangan she'riy san'atlar misol bo'la oladi.

Mazkur faslda Eshqobil Shukur she'rlari misolida badiiy san'at turlarini ko'rib o'tishni maqsad qilgan ekanmiz, birinchi navbatda lafziy san'atning ayrim turlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Lafziy san'atlar. Adabiyotshunoslikdan ma'lumki, she'riy san'atlarning aynan lafziy turlari ijodkor yetkazmoqni maqsad qilgan g'oya va fikrni yuksak badiiy shaklda o'quvchi ongiga singdiradi. Shundan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, shoir poetik mahoratining o'ziga xosligini ifodalashda she'rda qo'llangan lafziy san'atlar tahlili g'oyat muhimdir. Ulardan biri "**tarsi**" badiiy san'atidir.

"**Tarsi**" (ar. - gavharni ipga tizish) - baytning birinchi misrasidagi barcha so'zlarning ikkinchi misradagi so'zlar bilan o'zaro teng, vazndosh va qofiyadosh bo'lishiga asoslangan badiiy san'at. Umar Roduyoniyning "Tarjumon ul-balog'a" (11-a.) asaridan boshlab ilmi badi'ga doir barcha forsiy risolalar *tarsi* san'ati ta'rifi bilan ibtido topganligini ko'rish mumkin. *Tarsi* san'ati g'azal yoki qasida janrida qo'llanganda asosan matla'da yuzaga keladi, chunki ushbu janrlarning qofiyalanish tizimi shuni taqozo etadi⁴.

Eshqobil Shukurning masnaviy shaklda yozilgan "Xalq ohangida"⁵ she'rining besh baytida ushbu san'atning go'zal na'munasini ko'rishimiz mumkin:

1-bayt:

1-misra	Oybulutning	orasidan	oyday	kelinlar	kelar
2-misra	Kunbulutning	orasidan	kunday	kelinlar	kelar

Matla to'rtinchi va yettinchi baytlarda takror holda qo'llangan va **Radd ul-matla'** hosil qilgan. "Radd ul-matla'" (ar. - matla'ning takrorlanishi) - g'azal yoki qasida matlasidagi birinchi misraning maqta'da, ba'zan she'r tarkibidagi baytlardan birida takrorlanib kelishiga asoslangan she'riy san'at. Bu tarzda takror tasodifiy bo'lmasdan, muayyan poetik maqsadga ega. G'azal matla'si yoki qasidaning birinchi baytida ilgari surilgan fikr keyingi baytlarda rivojlantirilib boriladi va she'r nihoyasida misrani takrorlash orqali o'sha fikr yana ta'kidlanadi⁶.

³ Бобоев Т. Шеър илми таълими. — Т.: Уқитувчи, 1996. — Б 237.

⁴ Dilnovoz Yusupova. ARUZ VAZNI QOIDALARI VA MUMTOZ POETIKA ASOSLARI, O'quv qo'llanma, Toshkent – 2018, 155-bet.

⁵ Эшқо92бил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. —Б .

⁶ Dilnovoz Yusupova. ARUZ VAZNI QOIDALARI VA MUMTOZ POETIKA ASOSLARI, O'quv qo'llanma, Toshkent – 2018, 158-bet.

2-bayt:

1-misra	Taram-taram	sochlar	mana	boylar	ko'ngilni
2-misra	Qalam-qalam	qoshlar	yana	naylar	ko'ngilni

3-bayt:

1-misra	Tog'larimning	toshlarida	tonglar	yorildi
2-misra	Ohlarimning	yoshlaridan	tunlar	tirildi

She'ning beshinchi va oltinchi baytlaridagi so'zlar o'zaro ohangdoshdek tuyilsa-da, biroq tarsi' san'ati qo'llanmagan.

5-bayt:

Darbozada daraxshona olovlar yonsin,

Sochlar sirin sulb, mastona kuyovlar olsin.

6-bayt:

Oydin oy ham bag'ringga jim botar biram-ey,

Gulchambarday bo'yningga qo'l osar jo'ram-ey.

Ushbu baytlarda qo'llangan "darbozada-sochlar", "oydin-gulchambarday" so'zlari o'zaro qofiyadosh emas. Shu sababdan tarsi'ni hosil qila olmaydi.

Keyingi badiiy san'at-**tardi aks**. "Tardi aks (ar. - teskari qilib takrorlash) - bayt tarkibidagi ikki so'z yoki birikmani avval muayyan bir tartibda keltirib, so'ng ularning o'rmini almashtirib takrorlash san'ati. Mumtoz poetikaga doir manbalarda "aks", "tabdil" nomlari bilan ham keladi".⁷

Bu san'atning ikki turi mavjud:

1. **Komil aks**-bunda so'zlarning o'zaro o'rin almashinishi baytdagi birinchi va ikkinchi misra orasida kuzatiladi. Masalan, shoirning "Ruhim" she'rida:

1-misra	Men	qushlarning	<i>tushlarida</i>	ko'rinay
2-misra	Men	<i>tushlarning</i>	qushlarida	ko'rinay

2. **Maxraj aks**-bunda misraning o'zidagi ikki so'z o'zaro almashinib qo'llanadi. Masalan, "Sahro" she'rida tardi aksning bu turini uchratishimiz mumkin:

Dil	qayda,	gul	<i>qayda,</i>	<i>qayda</i>	guliston?
-----	--------	------------	---------------	--------------	------------------

Ra'no Mullaxo'jaeva ta'kidlaganidek: "Badiiy takrorlar so'z, misra, ma'lum bandlar

⁷ Dilnovoz Yusupova. ARUZ VAZNI QOIDALARI VA MUMTOZ POETIKA ASOSLARI, O'quv qo'llanma, Toshkent – 2018, 159-bet.

ko'inishida uchraydi, ular she'riy matnning turli o'rinlarida kelishi mumkin va alohida badiiy vazifa bajaradi. Matnda ma'lum bir yukka ega bo'lmagan takror ayb sanaladi. Aksincha, takrorning mazmun va g'oyaga xizmat qilishi shoirning mahorati va san'atkorligidan dalolatdir".⁸

Bir kun kapalakka aylanar bu gul,

Bir kun buyuk ruhga evrilar bu tan...

Ko'rinib turibdiki, shoirning "Umid" she'ridan keltirilgan parchada har ikki misra ham bir xil so'z (bir kun) ning takroridan tashkil topgan. "Anafora deb nomlanuvchi ushbu usul misra, matn boshidagi so'zning parallel holda takroridan iborat bo'lib, nutq figurasi deb ham yuritiladi".⁹ "Anafora ba'zi manbalarda boshlang'ich so'z takrori deb ham yuritiladi. Boshlang'ich so'z takrori so'zlovchining hayajoni va diqqati qaratilgan tushunchani ko'rsatadi va ifodalilikni oshiradi, parallelizmni mustahkamlaydi".¹⁰

Eshqobil Shukur *bir kun* anaforasi orqali ijodkorning kelajakka bo'lgan ishonchini ifodalab beradi va bu takror shoir kechinmasini ifodalashda ta'sirchanlikni oshirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari "Umid" va "Kelajak" leksikalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni hisobga oladigan bo'lsak, kelajakda amalga oshadigan umid bir kuni amalga oshishiga ishora qiladi hamda she'r badiiyatini ta'minlash uchun ikki misra boshida takror qo'llaniladi. Bu esa shoir ongidan o'tayotgan "kelajakka umid" kechinmasini ifodalashning eng to'g'ri va original yo'lidir.

U.To'ychiyev anafora (boshlang'ich so'z takrori)ning fonetik, leksik, sintaktik, strofik turlarini farqlaydi.¹¹ Bizning fikrimizcha, bu bo'linish asosli. Chunki ichki bo'linishlar vositasida anaforaning mohiyati va qo'llanish doirasi yanada oydinlashadi. Har bir tur alohida ma'no ifodalash uchun qo'llanadi.

Masalan, fonetik anafora boshqa turlarga nisbatan kamroq ohangdorlikni yuzaga chiqaradi, lirik ohangni ifodalashdagi roli ham deyarli sezilmaydi:

Qayerdan kirding sen, farishta ayol,

Qayg'uli yigirma besh yoshimga.

Shoirning "O'tdan-da, suvdan-da, topmadim zavol..."¹² misralari bilan boshlanuvchi she'rida ko'rib o'tganimizdek birgina "q" harfi fonetik anaforani hosil qilgan.

Mazkur she'rning 3-bandida leksik anaforani ham uchratamiz:

Yuz yilki, sen ma'yus...Tizzangda kashta...

Yuz yilki, cho'milmas hurlar tushimga.

⁸ Муллаҳўжайева Р. Тафаккур янгиланиши. –Т.: Мухаррир. 2019. – Б.105

⁹ Ахманова О.С. Slovar lingvisticheskix terminov. – М.: Nauka, 1969. – С 47.

¹⁰ Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Л., 1959. – С. 283.

¹¹ To'ychiyev U. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. – Т.: Yangi asr avlodi, 2011. 93-bet

¹² Эшқобил Шуккур. Ҳамал айвони. Т, Шарк, 2002. –Б 142.

Yuz yilki, har kuni yuz bor qaytaman...

Ko‘rinib turibdiki, she’rda qo‘llangan leksik anafora (**yuz yilki**) ijodkor “yorning sabrmatonat bilan o‘tayotgan umrining har lahzasi asrlarga tengligini ifodalovchi” lirik kechinmasini o‘quvchi ongiga singdirish bilan bir qatorda poetik ko‘tarinkilik va yuqori pafosni ham ta’minlab bergan.

Yana bir misol:

Ko‘k eshakni minibsani,

Ko‘k parangi yopinibsani...

Shoirning “Orol”¹³ she’ridan olgan ushbu parchada ham shoir o‘z maqsadini ochib berish uchun “**ko‘k**” leksik anaforasidan mohirona foydalangan.

Ba’zi she’rlar borki, takrorning har ikki turini ham uchratish mumkin. Masalan, Eshqobil Shukurning “Ruhim”¹⁴ she’ri. 4 banddan iborat ushbu she’rda har band boshida “**Men**” leksikasi, oxirida esa “**ko‘rinay**” leksikasi takror holda qo‘llangan va shoirning jo‘shqin ichki kechinmasini ifodalash uchun xizmat qilgan:

...Men qushlarning tushlarida ko‘rinay,

Men tushlarning qushlarida ko‘rinay.

Ta’kidlash joizki, anaforaning **sintaktik** (so‘z birikmasi va gaplarning parallel kelishi) turi ham she’riyatda ko‘p uchraydigan hodisadir. Ifodalanmoqchi bo‘lgan fikrning ta’sir kuchini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shoirning “Subhi sahar”¹⁵ she’ri tahlili davomida qo‘shma gapning bir qismi hisoblangan sodda gap shaklidagi sintaktik anaforani ko‘rishimiz mumkin:

Bu tun kimlar qolib, kimlar ketdilar.

Qayda rizq gulladi, qaydadir fitna.

Sen kelding, go‘daklar isi ham keldi,

Sen kelding, yer-osmon chayildi sutga...

Tong kelishi, ya’ni ozod kunlar boshlanishi bilan uylar go‘dak islariga to‘ldi, butun olam “oq sutga chayildi”, ya’nikim poklandi. Shoir ruhiy kechinmasini ifodalash uchun “subhi sahar” birikmasi o‘rniga “sen” olmoshidan foydalanadi va o‘quvchining diqqatini kuchliroq jalb qilishga erishadi.

Eshqobil Shukur she’rlarida yuqoridagi turlarning barchasi uchrashiga tahlil davomida guvoh bo‘ldik. Aytish kerakki, boshqa ijodkorlardan farqli ravishda uning she’riyatida anaforaning

¹³ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 98.

¹⁴ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 15.

¹⁵ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 270.

strofik turini ko‘proq uchratamiz.

Bu turda misralar to‘liqligicha takror holda qo‘llanadi. Ma’lumki, xalq qo‘shiqlarida strofik anafora keng qo‘llaniladi. Eshqobil Shukur she’rlarida aynan shu turning yetarlicha uchrashi ham xalqona ruh ustuvorligidandir. Quyida 10 baytdan tashkil topgan “Mening qo‘lim ochiq..”¹⁶ deb boshlanuvchi she’ri misolida anaforaning strofik turini ko‘rib o‘tamiz:

Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq,

Kaptarlar don terib yedilar undan.

Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq,

Yulduzlar qon so‘rib edilar undan.

Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq,

Turnalar arg‘imchoq soldilar unda.

Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq,

Yo‘llarning izlari goldilar unda.

Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq,

Kun va tun bir-birin topdilar unda...

Bir misraning 10 baytda takrorlanishi bir qaraganda g‘alizlikni yuzaga keltirgandek tuyiladi, lekin unday emas. Baytdan baytga o‘tgan sari ijodkor lirik kechinmasidagi maqsad oydinlasha boradi, yorning qo‘llaridan ayrilgan kundan boshlab oshiq qo‘li ochiqligi eng so‘nggi baytdan anglashiladi. Sening ishqing meni asirga aylantirgan holda ko‘zlarimni ko‘r, qo‘llarimni yopiq holda saqlagan ekan, sen keting va men o‘zligimga qaytdim yo‘sinidagi lirik kechinmani ifodalash va har bir holatni yorqinroq ifodalash uchun “**Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq**” takrorining har bayt boshida qo‘llanilishi juda o‘rinlidir.

Yana bir misol. Shoirning “She’r odamlari”¹⁷ she’ri 3 banddan tashkil topgan va har bandi 9 misradan iborat. Har bir band so‘nggida takror misralarni uchratamiz:

Inson tuyg‘ulari qariydimi hech,

Bargrezon qoplarmi gul tuyg‘ularni?

Sizga gulzorlarim ochaman bu kech,-

Hasratim, sevinchim...va qayg‘ularni.

Shabiston, nuriston oralig‘ida

Shabnamday titranar dunyoyi qadim.

Sohir kavkabiston chimildig‘ida

¹⁶ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарк, 2002. –Б 79.

¹⁷ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарк, 2002. –Б 313.

Sizga yuragimni ochmoq istadim,

Sizga yuragimni ochmoq istadim.

Adabiyotshunoslikdan ma'lumki, anaforaning zidi bu epifora hisoblanadi. Unda misralar oxirida tovush, so'z, so'z birikmalari takror holda qo'llanadi. Badiiy adabiyotda ko'p qo'llaniladigan takror turi epiforadir.

...Er deb erimaydi bu tosh,

Qo'r yeb qarimaydi bu tosh.

Qarang qarimaydi bu tosh.

Kun o'tar. Tun o'tar.

Yaralar bitar.

Shoirning "Bibizilol hikoyati"¹⁸ she'rining uchinchi qismidan olingan yuqoridagi misolda so'z birikmasi shaklidagi epifora qo'llangan. She'r g'oyasi ham nihoyatda go'zal: Eri vafot etgan Bibizilolning ayriliqdan "ko'ksida tosh qolgan". Bu tosh na eriydi, na qariydi. Bu toshning nomi "ayriliq", Bibizilolni azoblagani-azoblagan. Shoir tosh obrazini eridan ayrilgan ayolning ko'ksida qotib qolgan dardli kechinmalarini to'la ochib berish uchun tanlaydi va maqsadiga yetadi.

Takrorga asoslangan lafziy san'atlarning yana bir she'riyatda ko'p qo'llanadigan turi takrirdir.

Takrir san'ati bir misrada u yoki bu so'zni, so'z birikmasini takror holda qo'llash orqali hosil qilinadi va badiiy nutqning hissiyligini, ta'sirchanligini oshiradi. Tadqiqimiz davomida Eshqobil Shukur she'rlarida ushbu san'atning ko'plab na'munalari uchraydi.

Misol uchun, "Sumbula"¹⁹ she'rida *Sumbula* so'zi takror holda qo'llangan:

"Sumbula-yo, Sumbula,

O'rab olay gul bilan.

Mening ko'nglim siz bilan-ey,

Siz ketasiz kim nilan?"

Sumbula, jon, Sumbula...

"Yig'loq tosh"²⁰ she'ridagi takrir esa so'z birikmasi vositasida hosil qilingan:

Yig'loq tosh...yig'loq tosh...

Kel, birga yig'laylik, yig'loq tosh...

Mukarrar (arabcha; takror-takror; qayta-qayta) san'atida shoir baytda takror kelgan so'zni ishlatadi. H.Umurovning yozishicha, takrirdan farqli ravishda mukarra so'zlar orasiga *defis*

¹⁸ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 65.

¹⁹ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 80.

²⁰ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 173.

qo'yiladi va takror so'zning ikkinchisi nutqdagi "xo'p, juda. rosa" kabi kuchaytiruvchi so'z vazifasini bajaradi²¹.

Masalan, shoirning "Sevgining bir kuni"²² she'ri 12 baytdan iborat bo'lib, har baytda mukarrarning go'zal na'munasini ko'rishimiz mumkin:

1-bayt	Aylanar og'ir-og'ir , Og'ir-og'ir falaklar
2-bayt	Og'ir-og'ir silkinib, Kuylaydilar teraklar.
3-bayt	Oy so'nar asta-asta , Asta-asta yulduzlar.
4-bayt	Asta-asta tebranib, Kirib kelar kunduzlar.
5-bayt	Uchadi yengil-yengil , Yengil-yengil xayollar.
6-bayt	Yengil-yengil sochingga Sho'ng'iydilar shamollar.
7-bayt	O'ylaysan yonib-yonib , Yonib-yonib o'tar kun.
8-bayt	Yonib-yonib darichang – Sajdagohga kelar tun.
9-bayt	Tushlaring shirin-shirin , Shirin-shirin meni bor.
10-bayt	Shirin-shirin ta'biri: Uning men-u seni bor.
11-bayt	Yashaysan baxtli-baxtli , Dardli-dardli kutasan.
12-bayt	Dardli-dardli o'zingga Shivirlaysan: "Sevaman..."

Takror san'atlarning betakror turlaridan yana biri **qaytariq** hisoblanadi.

She'rda bir so'zning misra boshi va oxirida takrorlanishi qaytariq san'atining yuzaga

²¹ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi:—T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 167-bet

²² Эшқобил Шукр. Ҳамал айвони. Т, Шарк, 2002. —Б 14.

kelishiga sabab bo'ladi. Shoirning 8 baytlik "Ishq suhbatlari"²³ she'rining toq baytlarida mazkur she'riy san'atni uchratamiz:

1-bayt:

Ay, gul, kiymishing o'n sakkiz bahor, ay, gul,

So'yla, qaysi jahon saning qulingdir?

3-bayt:

Ay, sarv, yafrog'lari ishq uyi, ay, sarv,

So'yla, qaysi bo'ston saning bog'ingdur?

5-bayt:

Ay, moh, ming kechani yopingan, ay, moh,

So'yla, zulfing ichra necha to'fondir?

7-bayt:

Ay, shams, ming yulduzni iyratgan, ay, shams,

So'yla, hayot qayda o'lim qaydadir?

Qaytariqlarga asoslangan she'riy san'atlardan biri **tasbe** bo'lib, birinchi misraning oxirida keltirilgan so'zni yoki so'z birikmasini ikkinchi misraning boshida keltirish orqali hosil qilinadi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, tasbe so'zlarining o'rnini qat'iy o'zgarmasligi bilan ko'zga tashlanadi.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan "Sevgining bir kuni" she'rida tasbe yaqqol ko'zga tashlanadi. She'rning 1-baytidagi "**og'ir-og'ir**", 5-baytidagi "**yengil-yengil**", 7-baytdagi "**yonib-yonib**", 9-baytdagi "**shirin-shirin**" takroriy so'zlari birinchi misrada so'z oxirida, ikkinchi misrada esa so'z boshida kelgan va tasbeni yuzaga chiqargan.

Tasbega teskari holda qo'llanadigan yana bir san'at mavjud bo'lib u tasdirdir.

Tasdir - birinchi misraning boshida kelgan so'zning ikkinchi misra oxirida kelishidir. Tasdir so'zlarning baytdagi o'rniga, takrorlanishiga ko'ra tasbega yaqin bo'lsa-da, ammo ular qaytariladigan so'zlarning joylashish tartibiga ko'ra farq qiladi.

Eshqobil Shukurning 6 baytdan iborat "No'noq"²⁴ she'rining birinchi va oltinchi baytlarida "u" olmoshi vositasida hosil qilingan tasdirni ko'rishimiz mumkin:

U o'n uch yoshida, suluvlar qolib,

Fotima chumchuqqa oshiq bo'lgan u...

...U o'n uch yoshida, dunyodan qolib,

²³ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарк, 2002. –Б 174.

²⁴ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарк, 2002. –Б 261.

Ozod Fotimaga oshiq bo'lgan u.

Savol-u javob san'ati sharq she'riyatida mashhur bo'lib, she'rning ma'lum bir qismi yoki to'liqligicha savol-javob usulida bitiladi. Tadqiqotimiz davomida Eshqobil Shukurning ushbu shakldagi 10 ga yaqin she'rlari mavjudligi aniqlandi quyida ayrimlarini misol sifatida keltirib o'tamiz. "Yangi yil she'ri"²⁵ da aka va singilning savol-javobi keltirilgan:

- *Sovuq qotmadingmi singlim, egachim,*
- *Akajon, jonimdan o'tmoqda ayoz, -*
- Sehr-afsunlarga yetmadi kuchim,*
- Qorbobo emasman, Eshqobil, xolos...*

"Qodir baxshi yodi"²⁶ she'rida lirik qahramon va *og'am, sarbon, singlim, ona, elim, baxshim* shaklida kelgan undalmalar o'rtasida savol-javob bo'lib o'tadi.

Nido -shoir baytda biror kishi, narsa, qush, hayvonlar, tabiat hodisalariga murojaat yoki xitob qilish san'ati hisoblanadi. Shoirning "Yoqut yong'oqlarni chaqib bo'ldingmi..."²⁷ misrasi bilan boshlanuvchi she'rining har bir misrasida lirik qahramonning shaxs, hayvon, tabiat hodisasiga murojaati orqali nido san'ati hosil qilingan:

Yoqut yong'oqlarni chaqib bo'ldingmi,
Afsungar olmaxon, qallob olmaxon?

Tillo chaqmoqlarni chaqib bo'ldingmi,
O', aldamchi bahor... O', tantiq bahor?

Oltin odamlarni chaqib bo'ldingmi,
Muruvvatsiz o'lim, shafqatsiz o'lim?

Qon to'la yurakni chaqib bo'ldingmi,
Peshonaga urib, bechora shoir?..

Saxovatli shoir, bechora shoir...

Ta'did so'zi arabcha so'z bo'lib, u "hisob", "sanoq", "miqdor" degan ma'nolarni ifodalaydi. Bu san'atning xususiyati shuki, matndan ega, kesim, aniqllovchi, to'ldiruvchi va hollarning zanjirli birin-ketin bir necha bor kelishini belgilashdir. Uyushgan so'zlar, birikmalar va

²⁵ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 32.

²⁶ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 85.

²⁷ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 155.

gaplar ham intonatsiya jihatidan alohida ohang kasb etadi. Uch, to'rt yoki undan ortiq so'z, birikma yoki gaplar uyushuvi badiiylilikni oshiradi:

Eshqobil Shukurning "Ey pir..."²⁸ deb boshlanuvchi she'rida ega uyushiq holda kelgan:

Ey pir, holim zabun, idrokim xarob,

Horitdi ta'nalar, g'iybat, olqishlar.

Na kuy taskin berar, na gul, na sharob

Ruhim osmonida muzlagan qishlar.

REFERENCES

1. Афоқова. Н. Абдулла Орипов лирикасида бадий санъатлар: Филол. фан. ном.... дисс. – Тошкент, 1997. – Б. 14
2. Х у с а й н и н А т о у л л о ҳ. Бадойиъус-санойиъ. Т., 1981, 35-бет.
3. Бобоев Т. Шеър илми таълими.— Т.: Уқитувчи, 1996.—Б 237.
4. Dilnovoz Yusupova. ARUZ VAZNI QOIDALARI VA MUMTOZ POETIKA ASOSLARI, O'quv qo'llanma, Toshkent – 2018, 155-bet.
5. Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б .

²⁸ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 222 .